



## Zaxiriddin Muxammad Bobur Farg'ona davlatidagi yerga egalik munosabatlari va mavjud bo'lgan lavozimlar xaqida muloxazalar

Umarov Najmiddin Maxamatali o'g'li

Andijon Davlat universiteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich magistranti

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Zaxiriddin Muxammad Bobur davrida Farg'ona davlatidagi mavjud bo'lgan yerga egalik munosabatlar va boshqaruvda mavjud bo'lgan amallar xaqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Zaxiriddin Muxammad Bobur, Suyurg'ol, Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Abu Said Mirzo, Tarxon, Mulki Ushriya, Eshik og'a, Qushchi, Axtachi, Aftobachi

Soxibqiron Amir Temur xayotlik chog'idayoq davlatiga birlashgan barcha katta-yu kichik viloyatlarni boshqarish uchun o'z avlodlari va yaqin kishilariga Suyurg'ol tarzida in'om qilib bergan edi. **Suyurg'ol**-katta xududlarni tasarruf qilish uchun aloxida uluslarga ajratib berish usuli bo'lib, unda ulus boshida turgan xukmdor o'sha katta viloyatda butun axolisi bilan bir qatorda yer va suviga xam egalik qilish xuquqini oladi. Shoxrux Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Abu Said Mirzo, shuningdek Xusayn Bayqaro xukmronligida xam ana shunday uluslarni suyurg'olga berish an'anasi davom etdi va bu Shayboniylar davrida xam amalda bo'lgan.

Farg'ona ulusi xam uni idora qilish Abu Said Mirzo tomonidan vorisiylik xuquqi bilan Umarshayx Mirzoga berilgan edi. Ana shu egalik xuquqini olgan temuriyzodalar o'z uluslarini kichikroq bo'lsa xam yagona bir davlat sifatida boshqarar edilar.<sup>59</sup>Zaxiriddin Muxammad Bobur xam otasi Umarshayxning tasodifiy o'limidan so'ng Farg'ona ulusi davlatining vorisi sifatida ushbu odatga ko'ra egalik xuquqini olgan edi. Shu o'rindaa kichik bir muloxazaga to'xtalib o'tsak: Yerga egalik munosabatlari yevropa va Osiyo

<sup>59</sup> S. Jalilov Bobirning Farg'ona davlati Fan T., 1995



davlatchiliklarida tubdan farq qiladi. Yer xukmdorga tegishli bo'lgan Osiyocho yondashuv o'zining ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsatadi. Chunki davlat yerlarining unumdor qismining xukmdor va uning yaqinlari tomonidan egallanishi oddiy xalqning siyosiy elitaga nisbatan nafratini kuchaytirib yuboradi. Bunday siyosat yuritish esa sulola va raiyatni o'rtasida tafovutni yuzaga keltiradi.<sup>60</sup> Masalaning yana bir salbiy tarafi shunda-ki juda katta xududni egallagan davlatda boshqa millat vakillarining ko'pchilik qismni tashkil etishi xam va urug' aymoqchilikning kuchayishi sababli yuzaga keladigan ixtiloflar xam aynan yer egalik munosabatlarini tartibga solish va bu bo'yicha aniq ishlar qilishni taqozo qilgan. Shunday qilib Zaxiriddin Muxammad Otasi Umar shayxga Suyurg'ol qilib berilgan Farg'ona mulkining xukmdori sifatida mana shunday muammolarga xam qarshi turishi lozim edi. Yana bir jixat axamiyatli-ki xududlar xukmdorlari o'zlari turli xil soliqlar va boshqa to'lovlarni joriy qilish xuquqiga ega edilar. Bobur Podshox xam ana shunday xuquqqa ega edi.<sup>61</sup> Bobur Davlat boshqaruvida yirik yer egalari bo'lgan amaldorlar, xarbiylar, shayxlar va ulomalarga tayanib ish olib brogan. Bobur podshox atrofida xarbiy shaxslar, amaldorlar va ulamolardan iborat tor doira tashkil qilgan va bu doiraga juda qattiq ishongan. Ularning ba'zilariga davlat oldidagi aloxida xizmatlari uchun katta-katta ekin yerlari va bog'larga ega bo'lgan. Bunday yerlar **Tarxondeb** atalgan. Tarxonga egalik qilgan shaxs soliq va o'lponlardan ozod bo'lgan. Yana bir jixat e'tiborga loyiqki Tarxon yorlig'ini olgan shaxs davlat oldida biror nojo'ya xarakat sodir etsa 9 marttagacha kechirilgan va 10-martasida bu xuquqdan ajralgan. Tarxonga egalik 9 Sulolagacha davom etgan. Bulardan tashqari **Vaqf yerlari** xam bo'lgan<sup>62</sup>. Vaqf yerlar va mulklar-diniy muassasalar xisoblanmish masjid, madrasa, shuningdek, ayrim so'fiylik jamoalari, yirik diniy arboblarning nomiga va ularning qabr daxmalari uchun davlat tomonidan yoki mulk egalari tomonidan ixtiyoriy ravishda in'om qilingan. Ekin yeridan tashqari foyda keltiradigan bog'lar, karvonsaroylar, tegirmon va abjuvozlar, xunarmandchilik do'konlari xam Vaqf qilingan. Ulardan olinadigan daromad xisobiga Madrasa xodimlari va talabalari, mudarris xamda ayrim nasabli shaxslar tirikchilik qilishgan. Vaqf mulklarining barchasi davlat yoki badavlat

<sup>60</sup> O'sha asar

<sup>61</sup> S. Jalilov Bobirning Farg'ona davlati Fan T., 1995 102-103 betlar

<sup>62</sup> O'sha joyda



shaxslar tasarrufidan chiqarilib “Vaqfnoma” nomli yuridik xujjat bilan rasmiylashtirilib borilgan.

Boshqa musulmon Sharqida bo’lgani kabi, Farg’ona mulkida xam mamlakat ijtimoiy xayotida islom dini peshvolari katta ijtimoiy mavqeyga ega bo’lgan. Shu sababli xukmdorlar o’z mavqeylarini ular bilan mustaxkamlar edilar, bunday diniy nasabga va xurmatga ega bo’lgan shaxslar aloxida qadrlanar edi, xattoki ayrim yurtlardan keladigan soliqlardan foydalansih xuquqi xam berilar edi. Ma’lumki xukmdorlar yetuk tasavvuf ulamolarini o’zlariga pir xisoblashgan. Umarshayx Mirzo xam Xoja Ubaydulla Axrorini o’ziga pir qilgan edi. Xoja Axror xam uni o’g’lim deya e’zozlagan. Bonur esa otasini “Bisyor” saxovati bor edi deb ta’riflaydi Boburnoma asarida. Bir gal aka-uka Axmad bilan Umarshayx o’rtasida Samarqand uchun nifoq paydo bo’lganida Xoja Axror Margilonga kelib ularni yarashtirib qo’ygani tarixdan ma’lum. Movaraunnaxr tarixida ayniqsa XV- asr 2-yarmiga kelib davlat soliqlaridan ozod qilingan turli yer-mulk egalarning ko’payib ketishi markaziy xokimyatning iqtisodiy qudratiga zarar yetkazgan. Davlat tomonidan bir qancha imtiyozlarning ayrim toifa vakillariga chegarasiz miqdorda berilganligi buning asosiy sababidir. Yana shuni takidlash joizki bunday xuquq va mavqeyga ega bo’lgan haxslar davlatning siyosatiga qarshi siyosat xam olib borishga urinishgan va bu uchun aolxida guruxlarni tuzishgan. Ma’lum mavqeni egallab turgan ayrim amir, beklar o’zboshimchalik bilan o’z davlat boshlig’idan xusumat qilib ko’pincha uning zarariga faoliyat ko’rsatgan xolatllar xam uchrab turgan. Boburning yozishicha Ana shunday beklardan biri Qambar Ali Miroxur edi. U 25-30 yillik siyosiy faoliyati davomida 5 marotaba o’z boshlig’ini tashlab ketgan va Umar Shayxni xizmatiga kirgan undan so’ng esa Bonur Podshoxning xizmatida yurgan. Bobur unga xamisha yuqori amal berib turgan, biroq xech qanday davlat axamiyatiga molik tadbirlarda yig’ilishlarda qatnashishiga to’sqinlik qilgan. Bunday misollarni Boburnoma asarini sinchiklab o’qib uchratish mumkin va bundan shunday xulosa keladiki davlatning ijtimoiy xayotida ayrim muammolar mavjud bo’lib bunga beklar va amirlarning boylikka o’chligi sabab bo’lgan.

Yuqorida aytilgan yer-mulk turlaridan tashqari yana “**Mulki Ushriya**” yerlari xam bo’lgan. Bunday yerlardan xar yili daromadning 10/1 qismi miqdorida soliq undirilgan.



Dexqonchilik yerlaridan tashqari “**Mulki Ushriya**”ga chorvachilik va boshqa maxsulot manbalari xam kiradi. Barcha turdagi dexqonchilik yerlarida, umuman, qishloq xo’jaligida asosiy ishlab chiqaruvchi kuch kambag’al dexqonlar ommasi edi.<sup>63</sup> Biroq bu ommaning turli urushlar natijasida turmush tarzi va tirikchiligi o’g’ir bo’lganligini yashash sharoiti dexqonchilikning qay tarzda bo’lishiga bog’liq bo’lgan.<sup>64</sup> Bu ma’lumotlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki Farg’ona davlati tub iqtisodiy-ijtimoiy isloxotlarga muxtoj bo’lgan, imtiyozlarni chegaralab turuvchi tizim xam mavjud bo’lmagan, davlat boshqaruvida yuqorida ta’kidlab o’tilgan kengash ya’ni Arkoni davlatning faoliyati xam tor doirada bo’lganligi tufayli siyosiy isloxotlar xam sust kechgan. Temur va barcha Temuriylarning davlat saroyida mavjud bo’lgan lavozimlar Umar shayx Mirzo va Bobur Mirzo davrida xam saqlanib qolgan<sup>65</sup>. Masalan: **Eshik og’a, Qushchi, Axtachi, Aftobachi** va boshqa bir qator lavozimlarni misol keltirish mumkin. Malumki saltanatning poytaxt shaxriga xokimlik yuqori lavozimlardan sanalgan va u xokim xukmdorning maslaxatchisi lavozimini xam egallagan. Barcha davlat lavozimidagilar albatta ma’lum imtiyozlarga ega bo’lgan, yer-suv yoki boshqa boshqa boyliklar bilan ta’minlangan va turli davlat soliqlaridan ozod qilingan. Bunday imtiyozga ega bo’lgan shaxslarga xukumat tomonidan maxsus “**Yorliq**” rasmiy xujjat berilgan.

Ayrim viloyat, shaxarlarni idora qilishda xam o’z navbatida mayda davlat lavozimlari mavjud edi. Hokimning farmonlari ijrosini nazorat qiluvchi-Yasovul, maxalliy militsiya boshlig’i -Mirshab, Jilovdor-xonning otlarini parvarish qiluvchi, Sarkor-davlatning turli tadbirlari va xasharlarida ish boshi,

Noib-Viloyat hokimining yordamchisi, Nozir-Hokimiyat ta’minoti va uning xarajatlarini nazorat qiluvchi, Qutvol-shaxar arki boshlig’i kabi bir qator lavozimlar bo’lgan. Saroyda erta tongda birinchi navbatda xukmdorga salom berish odati bo’lgan, bunday joy esa saroyda Salomxona deb atalgan.

<sup>63</sup> S. jalilov Bobirning Farg’ona davlati Fan T.,1995

<sup>64</sup> O’sha joyda

<sup>65</sup> Bobur abadiyati. “Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining jahon madaniyati turixida tutgan o’rni” mavzusidagi xalvaro anjuman materiallari. Andijon, 2017-yil 26-27-oktyabr.



Xaqiqatdan xam Bobur davrida Farg'ona davlatining ijtimoiy-iqtisodiy xayotida juda katta o'zgarishlar sodir bo'lgan va buning eng asosiy ustini davlatning funksiyalarini bajaruvchi amallarning tartibida desak mubolag'a bo'lmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zaxiriddin Muxammad Bobur Boburnoma T.,1993
2. Zaxiriddin Muxammad Bobur Mubayyin T., 1994
3. Zaxiriddin Muxammad Bobur Tanlangan asarlar T.,1958
4. Abul G'ozii ,, Shajarai Turk,, T.,1992
5. Bobur abadiyati. "Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining jahon madaniyati turixida tutgan o'rni" mavzusidagi xalvaro anjuman materiallari. Andijon, 2017-yil 26-27-oktyabr.
6. БунядовЗ.М. Библиография. Сост. З.Т.Курбанова. / Баку: Nurlan, 2004.
7. Soliev В. O'rta Osiyo tarixi. Toshkent, 1930; Азимджанова С. К истории Ферганы второй половины XV века. Ташкент: Фан, 1957;
8. Bo'riev O. Temuriylar davri yozma manbalaida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi. Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2017.
9. Захириддин Мухаммад Бабур. Бабуриды / Библиография. Москва: ИВЛ, 2016. 6884 назв.
- 10.Zahirəddin Məhəmməd Babur. Baburnamə. Çeviren: Remiz Asker. Bakı, 2011; Zahirəddin Məhəmməd Babur. Baburnamə. Cağataycadan Çeviren: Füzuli Bayat. Bakı: Avrasiya Press, 2011.
11. Fitrat. O'zbek adabiyoti namunalari. 1-jild. Samarqand-Toshkent, 1928 (arab yozuvida); Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. P.Shamsiev, S.Mirzaev, E.Mano nashrlari asosida qayta nashrga tayyorl.: S.Hasanov. Toshkent: "Sharq" NMAK, 2002 va boshq.
- 12.Bobur va "Boburnoma" mavzusida yoqlangan dissertatsiyalar / Bobur ensiklopediyasi. Toshkent: "Sharq" NMAK, 2017. B. 598-99.
- 13.Bobur asarlariga tuzilgan lug'atlar / Bobur ensiklopediyasi. Toshkent: "Sharq" NMAK, 2017. B. 112-13.
14. O'zbek adabiyotida Bobur siymosi / Bobur ensiklopediyasi. Toshkent: "Sharq" NMAK, 2017. B. 538-42.
15. Bobur ensiklopediyasi. Toshkent: "Sharq" NMAK, 2017. B. 119-29.
- 16.Bobur va dunyo. Ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal. 2017-18. 1-4 son.
17. Mirzo Xaydar ,, Tarixi Rashidiy,, T.,2015
18. Isxoqxon Ibrat Farg'ona Tarixi T.,2005
19. A. Navoiy Majolis-un-Nafois
20. S. Jalilov XV-XVI asr boshlarida Farg'ona va Andijon. Madaniy xayot Andijon 2005
21. S. Jalilov Boburning Farg'ona davlati Fan. T.,1995



22. Juvonmardiyev A. XVI-XIX asrlarda Farg'onada yer suv munosabatlariga oid T.,1965